O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

S.Normamatov

2022-yil "___" avgust

"TILSHUNOSLIK ASOSLARI"

FANI BO'YICHA

# SILLABUS

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60230700 – Amaliy filologiya |

**Toshkent-2023**

| Fan/modul kodi TA 1105 | | Fan/modul turi majburiy | | Ta'lim tili o'zbek | | | Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024 | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Har bir semestrdagi modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 1 | Tilshunoslik asoslari | 5 | 4 | 60 | 30 | 30 | 0 | 0 | 90 | 150 |
| | Jami: | 5 | 4 | 60 | 30 | 30 | 0 | 0 | 90 | 150 |

### Fan maqsadi (FM)

Fanni o'qitishdan maqsad –tilshunoslik fani haqida asosiy ma'lumot berib, til ilmi haqidagi muhim jihatlarni o'rgatishga qaratilgan. Talabalarning umumta'lim tahsili jarayonida olgan bilimlarini umumlashtirishni va mustahkamlashni; tilning o'ziga xos tabiatini tahlil etishni; til va jamiyat; til va tafakkur; til va nutq munosabatlarini o'rganishni; til birliklarining o'zaro mutanosib, yaxlit tizim sifatida namoyon bo'lishini; til fanining har bir bo'limi mohiyatini yoritishni; til fani bo'limlarining o'rganish obyektini tushuntirishni; talabalarda "Tilshunoslik asoslari" kursi doirasida mustaqil fikrlay olish ko'nikmalarini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilgan.

### Ta'lim natijalari (TN)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

• "Tilshunoslik asoslari"ning fan sifatidagi o'rni, uning boshqa tilshunoslik fanlari nazariyasi va uning asosiy tushunchalarini umumlashtirish, til hodisalarining jahon tilshunosligi va o'zbek tilshunosligida o'rganilish holati to'g'risida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;

• tilshunoslikning boshqa sohalarini mustaqil o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

• tilning ijtimoiy va ramziy hodisaligini tushuntira bilish, tillarning tasnifiy o'rnini aniqlash, lison va nutqni farqlash, lisoniy munosbat va ziddiyatlarni farqlash malakalariga ega bo'lishi kerak.

### Talabalarning kreditlarni olish tartibi



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom" Nizomning 15- va 30-bandlariga asosan Tillar tipologiyasi fanidan 150 soat (1-semestrda 150) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi(sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egalagan talabaga 5 (1-semestrda 5) kredit beriladi.

Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**

**5 baho.** Talaba amaliy topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng nazariy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.

**4 baho.** Talaba amaliy topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muayyan nazariy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.

**3 baho.** Talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talabada fikrni izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.

**2 baho.** Talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

**Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** 2 ta.

1-oraliq nazorat og'zaki shaklda o'tkaziladi.

Tilshunoslik asoslari fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savollariga yozma javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savolnoma savollari Tilshunoslik asoslari fani mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 20 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Yozma ishni baholash mezoni: Talaba jami savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kami (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

2-oraliq nazorat test shaklida o'tkaziladi. Tilshunoslik asoslari fani uchun har bir talaba 30 ta savoldan iborat test topshiradi. Test kompyuterda test.navoiy-uni.uz platformasida tashkil etiladi. Test topshiriqlari savollari fan mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 2 daqiqa, jami 30 ta savol uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshirish jarayonida test bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Test natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Testni baholash mezoni Talaba jami savollardan 27-30 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 23-26 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 18-22 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 17 va undan kami (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

**Yakuniy nazorat:** Tilshunoslik asoslari fani bo'yicha har bir talaba 30 ta savoldan iborat test topshiradi. Test kompyuterda test.navoiy-uni.uz platformasida tashkil etiladi. Talabaga login va parol orqali tizimga kirish imkoniyati yaratiladi. Test topshiriqlari savollari mazkur fan mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 2 daqiqa, jami 30 ta savol uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshirish jarayonida test bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Test natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.



Testni baholash mezoni Talaba jami savollardan 27-30 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 23-26 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 18-22 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 17 va undan kami (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va YNni topshira olmagan hisoblanadi.

***Izoh:*** *Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

| | **Fan mazmuni** | **Soat** |
|---|---|---|
| | **Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) (1-semestr)** | **30** |
| **M1** | Kirish. "Tilshunoslik asoslari" fanining maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti. Tilshunoslikning fan sifatida shakllanishi | 2 |
| **M2** | Tilning paydo bo'lishi haqida nazariyalar | 2 |
| **M3** | Til – sistema sifatida | 2 |
| **M4** | Til – ijtimoiy hodisa | 2 |
| **M5** | Tillarning rivojlanishi va variantlashuvi | 2 |
| **M6** | Lison va nutq munosabati | 2 |
| **M7** | Dunyo tillari. Dunyo tillari tasnifining nazariy asoslari. Dunyo tillari tasnifi | 2 |
| **M8** | Til va tafakkur | 2 |
| **M9** | Til va jamiyat | 2 |
| **M10** | Til sathlari | 2 |
| **M11** | Fonetika va fonologiya | 2 |
| **M12** | Leksikologiya | 2 |
| **M13** | Grammatik kotegoriyalar | 2 |
| **M14** | Morfologiya | 2 |
| **M15** | Sintaksis | 2 |
| | **Mashg'ulotlar shakli: seminar mashg'ulot (S) (1-semestr)** | **30** |
| **S1** | Tillarni tasniflash asoslari. | 2 |
| **S2** | Dunyo tillari va xalqaro tillar. | 2 |
| **S3** | Fonetika va fonologiya. | 2 |
| **S4** | Tillarning taraqqiyot qonuniyatlari. | 2 |
| **S5** | Morf va morfema. | 2 |
| **S6** | Grammatik ma'no. | 2 |
| **S7** | Orfoepiya va orfografiya. | 2 |
| **S8** | Grafika. | 2 |
| **S9** | Til va yozuv. | 2 |
| **S10** | Leksikologiya. | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| S11 | Frazeologiya. | 2 |
| S12 | Morfologiya. | 2 |
| S13 | Sintaksis. | 2 |
| S14 | Nutq uslublari. | 2 |
| S15 | Lingvistik tahlil metodlari. | 2 |

### 3. Mustaqil ta'lim ishlari

"Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar"ning asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan tadqiqot ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Fan bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- o'rganilmagan, muammoli mavzular bo'yicha tezis, maqolalar tayyorlash;
- badiiy asarlarni o'qish va mutolaa qilish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- masofaviy (distansion) ta'lim.

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va turlari | 90 |
|---|---|---|---|
| 1 | Tilning paydo bo'lishi haqidagi diniy talqinlar. | Til, Tilning paydo bo'lishi, diniy faraz, ideologiya, idealistik talqinlar. | 4 |
| 2 | Tilning paydo bo'lishi haqidagi idealistik farazlar. | Tilning kelib chiqishi, tilning kelib chiqishi haqidagi farazlar, dualistik, materialistik. | 4 |
| 3 | Tilning kelib chiqishi haqidagi dualistik qarashlar. | Tilshunoslik, darslik, qo'llanma, glottogenez. | 4 |
| 4 | Tilning kelib chiqishi haqidagi materialistik yondoshuvlar. | Mantiq, tilshunoslik, qarash, til falsafasi | 4 |
| 5 | Til va tafakkur munosabati | Tushuncha, so'z, tafakkur, dunyoqarash. | 4 |
| 6 | Til ta'limiga til falsafasi nuqtai-nazaridan yondashuv. | Til ta'limi, til falsafasi, nuqtai-nazar, yondashuv. | 4 |
| 7 | Ne'matov H. Til va nutq. – Toshkent, 1993. | Kitob asosida tezis tayyorlash | 4 |
| 8 | Ne'matov H., Mengliyev B., Botirova A. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Monografiya. – GlobeEdit, 2020. – 109 b | Kitob asosida taqdimot tayyorlash | 4 |
| 9 | Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Toshkent, 2018 | Kitobga taqriz yozish | 4 |
| 10 | Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Andijon, 2006 | Semantika, qoyosiy semantika, o'zbek va rus tillarining tipologiyasi | 4 |
| 11 | Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari – Toshkent, 1995 | Semantika, qoyosiy semantika, qarin-dosh bo'lmagan tillar tipologiyasi | 4 |
| 12 | Mahmudov N. Til. – Toshkent, 1988. | Areal lingvistila, ingliz tili areali | 4 |
| 13 | Geografiya bo'yicha tillar guruhi | Areal tilshunoslik, dunyo tillari | 4 |
| 14 | Dunyo tilarining lingvistik areallari | Lingvistik areal, G'arbiy Yevropa tillari | 4 |
| 15 | O'zbek tili frazeologiyasi | Frazeologizmlarni so'z turkumiga ko'ra tasniflash | 6 |
| 16 | Lingvistik universallarni aniqlash va ularning tadqiqot tarixi | Universaliya, tarixiy-qiyosiy metod, dunyo tillari | 4 |
| 17 | O'zbek areal tilshunosligi tarixi va istiqbollari | areal tilshunoslik, dialekt, lahja, koyne | 4 |
| 18 | Struktur tipologiya | Tilshunoslik mak-tablari, tipologiya | 4 |
| 19 | Areal tipologiya | Lingvistik tahlil metodlari, tipo-logiya | 4 |
| 20 | Turkiy tillardagi mushtarak va farqli jihatlar | Turkiy tillar, tipologiyasi, lingvistik geografiya | 4 |
| 21 | Turkiy tillarda singarmonizm hodisasi | Turkiy tillar, fonetik hodisalar, singar-monizm | 4 |
| 22 | Vositachi tillar: lingva-franka, kreol, pijin va koyne | kreol, pijin va koyne | 4 |
| | | **Jami:** | **90 s.** |



### 6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H.Dadaboyev. – Toshkent, 2004.
5. Sharipova O'., Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. - Toshkent, 2006.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси" тўғрисидаги Фармони ("Халқ сўзи", 2017 йил, 8 февраль).

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора – тадбирлари" тўғрисида ("Халқ сўзи" 2017 йил, 21 апрель)

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.

4. Абдуазизов А., Шереметьева А. Общее языкознание. – Тошкент, 2004.

5. Bushuy A.M., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent, 2007.

6. Yo'ldoshev I. va b. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent. 2013.

7. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Andijon, 2006.

8. Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2007.

9. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007.

10. Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.

**Axborot manbalari:**

www. literature.uz

www. genhis philol.ru.

http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism.

http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html.

**Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot**

| | |
|---|---|
| **Muallif:** | Mengliyev Baxtiyor, filologiya fanlari doktori, professor<br>Elova Dilrabo, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi |
| **E-mail:** | baxtiyormen@gmail.com<br>dilraboelova@gmail.com<br>elova@navoiy-uni.uz |
| **Tashkilot:** | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, "Amaliy filologiya" kafedrasi |
| **Taqrizchilar:** | 1. S.Muhamedova – ToshDO'TAU professori, f.f.d.<br>2. M.Hakimova – ToshDO'TAU dotsenti, f.f.d. |

Mazkur Sillabus universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2023-yil ____-avgustdagi _____-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.



Mazkur Sillabus "Amaliy filologiya" kafedrasining 2023-yil ____-avgustdagi ___-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

| | |
|---|---|
| **O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i** | V.Nazarov |
| **Fakultet dekani** | B.Abdishukurov |
| **Kafedra mudiri** | B. Mengliyev |
| **Tuzuvchi** | D.Elova |